

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RADJAPOVA REGINA RUSTAMOVNA**

**XVII–XVIII ASRLAR RUS RASMIY YOZMA YODGORLIKLARIDA  
PROTSESSUAL FRAZEOLOGIZMLAR: KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK  
ASPEKT**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti (filologiya fanlari)  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD) on  
Philological sciences**

**Radjapova Regina Rustamonva**

XVII–XVIII asrlar rus rasmiy yozma yodgorliklarida protsessual  
frazelogizmlar: kommunikativ-pragmatik aspekt.....3

**Раджапова Регина Рустамовна**

Процессуальные фразеологизмы в памятниках русской деловой  
письменности XVII–XVIII вв.: коммуникативно-прагматический аспект...25

**Radjapova Regina Rustamonva**

Procedural phraseological units in the monuments of russian business writing of  
the 17<sup>th</sup>–18<sup>th</sup> centuries: communicative-pragmatic aspect.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....52

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RADJAPOVA REGINA RUSTAMOVNA**

**XVII–XVIII ASRLAR RUS RASMIY YOZMA YODGORLIKLARIDA  
PROTSESSUAL FRAZEOLOGIZMLAR: KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK  
ASPEKT**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti (filologiya fanlari)  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1. PhD/Fil5576 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kulmamatov Dusmamat Sattarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Siddikova Iroda Abduzuxurovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xujanova Ozoda Tojiyevna**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2026-yil soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100170, Toshkent, Uchtepa tumani, G-9a mavzesi, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-a uy. Tel: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent, Uchtepa tumani, G-9a mavzesi, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-a uy. Tel: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2026-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**I.M. Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, ped.f.d., professor

**X.B. Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,  
professor

**J.A. Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo tillari tarixini o'rganishda yozma yodgorliklar ishonchli manba sifatida xizmat qilmoqda. Bu jihatdan saqlanib qolgan rus rasmiy yozma yodgorliklarini tadqiq etish jahon tilshunosligida dolzarb mavzu bo'lib kelmoqda. Shu munosabat bilan nashr etilmagan va hujjatlar to'plamlarida e'lon qilingan rus rasmiy yozuvining frazeologizmlarini tahlil qilish zamonaviy filologiya fanining muhim muammolaridan biridir. Ammo XVII–XVIII asr rus rasmiy hujjatlar yodgorliklarida uchraydigan protsessual frazeologizmlarning tarixi va semantik xususiyatlari hozirgacha tilshunoslar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Jahon tilshunosligida asosiy e'tibor rus rasmiy yozma yodgorliklari matnlaridagi frazeologizmlar faoliyatiga qaratiladi. Ularni tadqiq qilish semiotika, pragmatik, lingvistik, lingvovadaniyathunoslik va boshqalar doirasida amalga oshirilmoqda. Shu bois XVII–XVIII asrlarga oid rus rasmiy yozma yodgorliklari matnlarida qo'llanilgan turg'un so'z birikmalarini tahlil qilish hozirgi zamon jahon tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular orasida "jarayon sifatida har qanday harakat, holat, xossalar, o'zgarish" ma'nosini anglatuvchi protsessual frazeologizmlar alohida e'tiborni tortadi. Ularni tarkibiy-semantik, grammatik va kommunikativ-pragmatik jihatlardan lingvistik tadqiq etish dissertatsiya tadqiqotimizning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi munosabati bilan "xorijiy davlatlar va mahalliy ilm-fan yutuqlari"ni chuqur o'rganish, ommalashtirish va targ'ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda<sup>1</sup>. Bunday yondashuv frazeologizmlar haqida qiziqarli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yozma yodgorliklarni jalb qilish orqali dunyo xalqlari va ularning tillari, xususan, rus tili tarixini o'rganish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2021-yil 1-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6198-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son Qarori va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son qarori.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bugungi kunga qadar frazeologik birliklarni o‘rganish jahon tilshunosligida eng ommabop va dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mahalliy tilshunoslarning, rus va xorijiy frazeologlarning ko‘plab asarlari ushbu til birliklarining shakllanishi, ishlatilishi va faoliyatining turli muammolarini yoritishga bag‘ishlangan.

O‘zbek tilidagi turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganishga qaratilgan mashaqqatli mehnat, o‘zbek frazeologiyasining mustaqil fan sifatida shakllanishi, asos solinishi va rivojlanishiga mahalliy frazeologlar: A.Sh.Shamaqsudov, M.Xusainov, Sh.U.Rahmatullaev, Ya.D.Pinxasov, X.Berdiyev, B.Yo‘ldoshev, K.M.Hakimov, M.K.Xoliqova, A.E.Mamatov, K.T.Bozorboev, Sh.T.Almamatova, M.Y.Vafoeva, A.A.Nasirov, A.Ko‘chimov<sup>2</sup> va boshqalarning salmoqli hissasi bo‘lganini alohida ta’kidlash joiz. O‘zbek olimlari L.I.Royzenzon, A.M.Bushuy, Ye.A.Malinovskiy, M.Jusupovning<sup>3</sup> rus frazeologiya fanini o‘rganish borasidagi yuksak yutuqlarini alohida ta’kidlash lozim.

Rus rasmiy yodgorliklari matnlarida qo‘llanilgan frazeologik birliklar O.V.Gorshkova, G.A.Selivanov, F.Ye.Tkach, T.F.Alekseyeva, N.I.Tarabasova, L.Ya.Kostyuchuk, N.A.Antanadze, S.G.Shulejkova, N.P.Chmixova, N.G.Samoylova, N.P.Pankratova, S.S.Volkov, T.G.Trofimovich, D.S.Kulmamatov, N.G.Blagova, Ye.I.Zinoveva, N.A.Suvorova, L.M.Lyubimova kabi tilshunoslarning tadqiqot obyekti bo‘lgan<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Мукими (лексика и фразеология): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т.: САГУ, 1956. – 18 с.; Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1959. – 18 с.; Рахматуллаев Ш.У. Некоторые вопросы узбекской фразеологии: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Т., 1966. – 1001 с.; Пинхасов Я.Д. Хозирги ўзбек адабий тили: лексикология ва фразеология. – Т.: Ўқитувчи, 1969. – 79 б.; Бердиев Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарканд, 1977. – 38 б.; Йўлдошев Б. Хозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услугий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дисс. ... – Т., 1993. – 297 б.; Ҳақимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипни фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1994. – 26 б.; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1999. – 26 с.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри. дисс. ... – Т., 2000. – 312 б.; Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарканд, 2001. – 22 б.; Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Т., 2008. – 23 б.; Вафоева М.Й. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва уларнинг структурал-семантик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2009. – 26 б.; Насиров А.А. Семантико-стилистические и национально-культурные особенности провербиальных фразеологизмов во французском, узбекском и русском языках: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Т., 2016. – 29 с.; Кўчимов А. Француз ва ўзбек тилларида “қўл” компоненти сوماتик фразеологик бирликлар инсоннинг шахсий сифатларини ифодалаш воситаси сифатида // Ўзбекистонда хорижий тиллар. Илмий-методик электрон журнал, 2016. – № 3 (11). – 96–101 бетлар.

<sup>3</sup> Ройзензон Л.И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Самарканд, 1973. – 223 с.; Бушуй А.М. Лексикографическое описание фразеологии. – Самарканд, 1982. – 114 с.; Малиновский Е.А. Формирование русской фразеологической теории в XX веке: монография. – Самарканд, 2007. – С. 4–131.; Джусупов М. Фразеология русского языка: лингвистические и методические проблемы: монография. – Т.: Фан, 2008. – 223 с.

<sup>4</sup> Горшкова О.В. Язык московских грамот XIV–XV веков (лексика и фразеология): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: МГУ, 1951. – 15 с.; Селиванов Г.А. Фразеология новгородских договорных грамот XIII–XIV веков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов: СГУ, 1953. – 21 с.; Селиванов Г.А. Фразеология русской деловой

Shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunga qadar XVII–XVIII asrlarga oid rus rasmiy yozma yodgorliklari matnlaridagi protsessual frazeologizmlarning struktur-semantik va struktur-grammatik jihatdan tashkil etilishi tilshunoslarning kommunikativ-pragmatik jihatdan maxsus o'rganish obyekti bo'lgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari mos «Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari» yo'nalishining I-245/11-son mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** XVII–XVIII asrlardagi rus rasmiy yozma yodgorliklari matnlaridagi protsessual frazeologizmlarning struktur va semantik xususiyatlarini ularning kommunikativ-pragmatik aspekt nuqtayi nazaridan aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

rus rasmiy yozma yodgorliklaridagi frazeologizmlarni o'rganish tarixini lingvistik manbashunoslik yo'lida tahlil qilish;

XVII–XVIII asrlar rus rasmiy yozma matnlar materialini asosida o'zining ma'no strukturasi umumiy kategorial “protsessuallik” semasiga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalarining leksik-semantik xususiyatlarini ko'rib chiqish;

XVII–XVIII asrlarga oid rus rasmiy yozma hujjatlari matnlari asosida til birliklari ma'lumotlarining yaxlit ahamiyatini shakllantirishning ekstralingvistik omillarini aks ettirish uchun denotativ-signifativ va konnotativ makrokomponentlar orqali uzatiladigan protsessual frazeologizmlar semantikasini o'rganish;

---

письменности XVI–XVII веков: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – М.: МГПИ, 1973. – 50 с.; Ткач Ф.Е. Язык деловых документов канцелярии Богдана Хмельницкого (лексика и фразеология): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Львов, 1954. – 16 с.; Алексеева Т.Ф. Лексика и фразеология южнорусских грамот XIV–XV вв.: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1956. – 396 с.; Тарабасова Н.И. Об одном фразеологизме в частной переписке XVII в. // Исследования по лингвистическому источниковедению. – М.: Наука, 1963. – С. 144–155; Костючук Л.Я. Устойчивые словосочетания в древнерусском деловом языке (по грамотам XI–XIV вв.): Структурно-грамматическая характеристика: Дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1964. – 458 с.; Антаназе Н.А. Лексико-фразеологический состав судебных документов 1497 и 1550 гг.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тбилиси: ТПИ им. А. С. Пушкина, 1965. – 26 с.; Шулежкова С.Г. Устойчивые словосочетания в языке официально-деловых документов южноуральских крепостей XVIII века.: Автореф. канд. филол. наук. – М., 1967. – 20 с.; Чмыхова Н.П. Устойчивые сочетания слов в грамотах Кирилло-Белозерского монастыря (XIV–XVI вв.) // Проблемы фразеологии и задачи ее изучения в высшей и средней школе. – Вологда, 1967. – С. 301–311; Самойлова Н.Г. Устойчивые словосочетания в частной переписке XVII–начала XVIII вв. (к вопросу о формировании устойчивых словосочетаний): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1969. – 17 с.; Панкратова Н.П. К истории лексики и фразеологии XVII века (на материале частной переписки): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1970. – 16 с.; Трофимович Т.Г. Фразеологизированные средства номинации в Уложении 1649 года: Дисс. ... канд. филол. наук. – Минск, 1980. – 215 с.; Волков С.С. Стилиевые лексико-фразеологические средства деловой письменности XVII века: на материале челобитных: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Л., 1980. – 488 с.; Кулмаматов Д.С. Бить челом. – М.: Наука, 1994. – № 1. – С. 109–113; Кулмаматов Д.С. Холоп твой - общий ваш холоп // Русская речь. – М.: Наука, 2003. – № 4. – С. 69–72; Благова Н.Г. Лексика и фразеология памятников русского права XVII века (на материале Уложения 1649 г.). – СПб: Изд-во С.-Петербург.ун-та, 1998. – 104 с.; Зиновьева Е.И. Записные кабальные книги Московского государства XVI–XVII веков: Структура. Лексика. Фразеология. – СПб.: Изд-во С.-Петербург.ун-та, 2000. – 240 с.; Суворова Н.А. Фразеологизмы как экспликативы модального значения возможности в русском языке второй половины XVII – начала XVIII веков (на материале памятников деловой письменности): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Калининград, 2001. – 21 с.; Любимова Л.М. Социальные модели устойчивых формул деловых памятников как объект исторической фразеологии // Вестник ЧитГУ. Серия 8. Филология. – Чита: ЧитГУ, 2009. – № 4 (55). – С. 134–140.

tahlil qilinayotgan XVII–XVIII asr rus rasmiy yodgorliklarida qo‘llangan protsessual frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini illokatsion akt turlari ko‘rinishidagi propozitsion mazmun bilan yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida XVII–XVIII asrlardagi rus rasmiy yozma matnlarida uchraydigan protsessual frazeologizmlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** protsessual frazeologizmlarning struktur-semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Ishda lingvistik tahlil uchun quyidagi usullar tanlandi: frazeologizmlar semantikasini tavsiflash, kommunikativ-funksional va komponent tahlil.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

XVII–XVIII rus rasmiy yozuvi yodgorliklari matnida qo‘llanilgan “protsessual frazeologizmlar”, “frazeologik performativ konstruksiyalar”, “frazeoreflekslar”, “turg‘un frazaralar”, “suggestiv frazalar” tahlil qilinib, umumiy kategorial ‘protsessuallik’ semasiga ega bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalarini leksik hamda metaforik birikmalardan farqlovchi toifaviy belgilari (leksik bo‘linmasligi, frazeologik ma‘no turg‘unligi, idiomatikligi) aniqlangan;

XVII–XVIII asrlardagi rus rasmiy hujjatlarida mavjud bo‘lgan protsessual frazeologizmlarning semantik modifikatsiyalari (ekspressivlik, ta’sirchanlik, baholash) kommunikativ-pragmatik jihatdan yondashuv negizida shakllanganligi ilmiy asoslangan;

XVII–XVIII asrlar rus rasmiy yodgorliklarida qo‘llanilgan protsessual frazeologizmlarning denotativ-signifikat va konnotativ makrokomponentli harakat, faoliyat, holat, munosabat, borliq kabi toifalarini ifodalaydigan ma’nolari dalillangan;

assertivlar, direktivalar va deklarativlar sifatida XVII–XVIII asrlar rus rasmiy yodgorliklari matnlarida propozitsion mazmun bilan protsessual frazeologizmlar, frazeologiyalashgan performativ konstruksiyalar, frazeoreflekslar, turg‘un hamda suggestiv frazalar qo‘llanilishi ustuvor ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

til nazariyasi, rus tarixiy va zamonaviy frazeologiya fani, semantika va pragmalingvistika muammolarini tadqiq qilish va ishlab chiqishga ma’lum hissa qo‘shadi;

‘protsessuallik’ kategorial semasini kompleks o‘rganishni amalga oshirish fe’l asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan frazeologik tarkibning tarkibiy-semantik va tarkibiy -grammatik tashkil etilishi haqidagi tushunchani shakllantirishga yordam beradi;

tadqiqot natijalari protsessual frazeologizmlar, frazeologiyalashgan performativ konstruksiyalar, frazeoreflekslar, turg‘un frazalar, suggestiv frazalar kabi turg‘un so‘z birikmalarining tabiati haqidagi nazariy tasavvurlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yordam beradi;

turg‘un so‘z birikmalarining kommunikativ-pragmatik mazmunini tahlil qilish o‘rganilayotgan davrning ma’muriy-huquqiy va ishbilarmonlik sohasidagi muloqot

marosimlarini aniqlashga yordam beradi, bunda protsessual frazeologizmlar kommunikantlarning nutqiy o‘zaro ta’sirining u yoki bu illokatsion aktida faol nutqiy formulalar sifatida ishlatiladi;

**Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi** XVII–XVIII asrlar rus rasmiy yozuvlari matnlarida mavjud frazeologizmlardan foydalanilganligi, ilmiy tahlil usullari, umumilmiy va nazariy qoidalar, tadqiq etilgan nazariy va amaliy materiallarning katta hajmi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika va xorijiy jurnallarda, xalqaro va respublika konferensiyalari to‘plamlarida maqolalar chop etilganligi, ilmiy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** XVII–XVIII asrlarga oid rasmiy hujjatlar matnlari materiali asosida protsessual frazeologizmlarni o‘rganishning nazariy muammolari, protsessual frazeologizmlarning struktur-semantik tashkil etilishidagi o‘ziga xos xususiyatlar, komponent tarkibning yaxlit frazeologik ma’noning yaratilishiga ta’siri, kommunikantlarning nutqiy o‘zaro ta’siri jarayonida ushbu birliklar kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, rus xalqining milliy-madaniy o‘ziga xosligini ifodalovchi turg‘un so‘z birikmalarining obrazli-motivatsion asoslari haqidagi g‘oyalarning aniqlab berilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati «Rus tili leksikologiyasi», «Rus tilining tarixiy frazeologiyasi», «Rus adabiy tili tarixi», «Lingvistik pragmatika» kabi nazariy kurslar, lingvistik manbashunoslik bo‘yicha maxsus kurslardan fan dasturlari, sillabus, o‘quv adabiyotlari yaratish, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, dissertatsiya ishlari va monografiyalar yozishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XVII-XVIII asr rus rasmiy yozma yodgorliklari materiallari asosida protsessual frazeologizmlarni o‘rganish va tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqot materiallari joriy etilgan:

XVII–XVIII rus rasmiy yozuvi yodgorliklari matnida qo‘llanilgan “protsessual frazeologizmlar”, “frazeologik performativ konstruksiyalar”, “frazeoreflekslar”, “turg‘un frazaralar”, “suggestiv frazalar” tahlil qilinib, umumiy kategorial ‘protsessuallik’ semasiga ega bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalarini leksik hamda metaforik birikmalardan farqlovchi toifaviy belgilari (leksik bo‘linmasligi, frazeologik ma’no turg‘unligi, idiomatikligi) aniqlanganiga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 1-dekabrda 04/1-5747-son ma’lumotnomasi). Ushbu loyihada XVII-XVIII asrlarga oid rus rasmiy yozuvining protsessual frazeologizmlari semantikasi bo‘yicha funksional-parametrik tahlil usulini

qoʻllagan holda tadqiqotlar taqdim etildi. Ushbu loyiha doirasida dissertatsiyaning olingan ilmiy natijalari va ular asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar elektron platforma kartalar yigʻindisini yaratish boʻyicha dastur va topshiriqlarni takomillashtirishga koʻmaklashdi;

XVII–XVIII asrlardagi rus rasmiy hujjatlarida mavjud boʻlgan protsessual frazeologizmlarning semantik modifikatsiyalari (ekspressivlik, taʼsirchanlik, baholash) kommunikativ-pragmatik jihatdan yondashuv negizida shakllanganligi ilmiy asoslanganiga doir ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti huzurida filologiya fanlari doktori, professor Madjidova Raʼno Urishevnaning 2020-2022 yillarda Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan FZ-2019062034 raqamli “Xorijiy tillarda soʻzlashuvchilar uchun oʻzbek tilini intensiv oʻrgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida qoʻllanilgan (Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 20-noyabrdagi 24/747-son maʼlumotnomasi). Natijada protsessual frazeologizmlarning semantik modifikatsiyalari tahlili ushbu loyiha doirasida yaratilgan oʻzbek va rus tillari milliy-madaniy soʻzlar glossariysini tuzishda yordam berdi;

XVII–XVIII asrlar rus rasmiy yodgorliklarida qoʻllanilgan protsessual frazeologizmlarning denotativ-signifikat va konnotativ makrokomponentli harakat, faoliyat, holat, munosabat, borliq kabi toifalarini ifodalaydigan maʼnolari dalillanganiga doir ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti huzurida filologiya fanlari doktori, professor Madjidova Raʼno Urishevnaning 2020-2022 yillarda Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan FZ-2019062034 raqamli “Xorijiy tillarda soʻzlashuvchilar uchun oʻzbek tilini intensiv oʻrgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida qoʻllanilgan (Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 20-noyabrdagi 24/747-son maʼlumotnomasi). Natijada xorijiy tillarda soʻzlashuvchilar uchun oʻzbek-rus tilida multimedia mahsulotlari majmuasini yaratish uchun asos boʻlgan tadqiqotlar taqdim etildi. Protssessual frazeologizmlarga oid ilmiy xulosalar va dissertatsiyaning amaliy natijalari rus tilidagi oʻzining maʼnosini strukturasida umumiy kategorial ‘protssessuallik’ semasiga ega boʻlgan turgʻun soʻz birikmalarini oʻzbek tiliga tarjima qilish muammolarini yoritishga yordam berdi, bu ushbu loyiha doirasida oʻquv-metodik va bilim resurslarining barcha turlarini tayyorlash uchun materiallarning tarkibiy qismiga aylandi;

assertivlar, direktivlar va deklarativlar sifatida XVII–XVIII asrlar rus rasmiy yodgorliklari matnlarida propozitsion mazmun bilan protsessual frazeologizmlar, frazeologiyalashgan performativ konsruktsiyalar, frazeoreflekslar, turgʻun hamda suggestiv frazalar qoʻllanilishi ustuvor ekanligi isbotlanganiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – oʻzbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish”

nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 1-dekabrdagi 04/1-5747-son ma'lumotnomasi). Natijada XVII-XVIII asrlarga oid rus rasmiy yozuvi protsessual frazeologizmlarining kommunikativ va pragmatik tashkil etilganligi to'g'risidagi dissertatsiyaning xulosalari va amaliy natijalari joriy etildi, ular monografiya mazmunini boyitishda o'z aksini topdi hamda ushbu innovatsion loyiha doirasidagi dastur va qo'llanmalarni takomillashtirishga ko'maklashdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ma'ruza sifatida taqdim etilib, muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 2 ta maqola, respublika va xalqaro konferensiyalar to'plamlarida 6 ta tezis nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning asosiy matni 124 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Rus rasmiy yozuvi frazeologik birliklarini tadqiq etishning nazariy muammolari**» deb nomlangan birinchi bobida rus rasmiy yozuvi yodgorliklarida turg'un so'z birikmalarini o'rganish muammosining rivojlanish tarixi ko'rib chiqilgan; rus rasmiy yozuvining turli janrlaridagi turg'un so'z birikmalari va frazeologik birliklarning tahliliga bag'ishlangan ba'zi ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan; protsessual frazeologizmlar tushunchasi tavsiflanib, hozirgi zamon rus tilida protsessual frazeologik birliklarning pragmatik toifasiga umumiy tavsif berilgan.

XX asrda lingvistikada frazeologik materialni tizimli o'rganish V.V.Vinogradovning ilmiy-tadqiqot ishlari nashr etilganidan keyin grammatik, semantik va stilistik jihatdan amalga oshirila boshlandi<sup>5</sup>. U tilshunoslikda birinchi

---

<sup>5</sup> Виноградов В.В. Русский язык: (Грамматическое учение о слове). – М.-Л.: Гос. учеб.-пед. изд-во, 1947. – 783 с.; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Сборник статей и материалов. – М.-Л., 1947. – С. 339–364; Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – 319 с.

marta protsessuallik ma'nosiga ega bo'lgan va shaxs, nisbat, tur, zamon va maylning o'ziga xos morfologik kategoriyalari bilan tavsiflangan leksik birliklarga nisbatan «fe'l tipidagi frazeologik iboralar»<sup>6</sup> atamasini kiritadi. «Protsessual frazeologizm» atamasi XX asrning 70-yillaridan boshlab qo'llanila boshladi va Chelyabinsk frazeologik maktabi asoschisi A.M.Chepasova<sup>7</sup> tomonidan taklif qilingan va qo'llanilgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab protsessual frazeologizmlar bir qator tadqiqotlarning o'rganish obyektiga aylandi: M.T.Tagiyev, G.V.Bajutina, G.I.Lebedeva, V.G.Didkovskaya, F.I.Nikonovayte, O.I.Jmurko, L.P.Gasheva, E.E.Ivanova, O.V.Narolina, G.V.Makovich, I.G.Kazachuk, V.A.Lebedinskaya, A.V.Sviridova, N.B.Usacheva, L.N.Kornilova, V.I.Kabish<sup>8</sup> ishlarida uning mayyan qirralari yoritilgan.

Ta'kidlash joizki, faqat rus tili materialidagi protsessual frazeologizmlar tuzilishi va semantikasining turli jihatlari Chelyabinsk frazeologiya ilmiy maktabining tajribali frazeologlari: A.M.Chepasova, L.P.Gasheva, A.V.Sviridova, I.G.Kazachuk, L.N.Kornilova<sup>9</sup> tomonidan o'rganilgan.

---

<sup>6</sup> Виноградов В.В. О взаимодействии лексико-семантических уровней с грамматическими в структуре языка // Мысли о современном русском языке: Сб. статей / Под ред. акад. В.В. Виноградова. – М., 1969. – С. 17.; Тагиев М.Т. Глагольная фразеология современного русского языка (проблемы окружения и распространения фразеологических единиц): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Баку, 1967. – 53 с.

<sup>7</sup> Чепасова А.М. Семантико-грамматические классы русских фразеологизмов: Учеб. пособие – Челябинск: Челяб. пед. ин-т, 1974. – 100 с.; Чепасова А.М. Фразеология русского языка (Книга для юношества). – Челябинск: Изд-во Челяб. дом печати, 1993. – 215 с.

<sup>8</sup> Тагиев М.Т. Глагольная фразеология современного русского языка (опыт исследования фразеологических единиц по окружению): Монография. – Баку: Маариф, 1966. – 251 с.; Бажутина Г.В. Особенности внешних связей глагольных фразеологизмов в сопоставлении со связями переменного словосочетания (глагольное управление): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1975. – 25 с.; Лебедева, Г.И. Категория наклонения процессуальных фразеологизмов в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1978. – 23 с.; Дидковская В.Г. Сочетаемость глагольных фразеологизмов и фразеологических сочетаний со словом (на материале языка конца XVIII – начала XIX вв.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1978. – 15 с.; Никонов Ф.И. Категория вида фразеологических единиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1979. – 17 с.; Жмурко О.И. Глагольная фразеология русского языка второй половины XVIII в. (на материале басен): Дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1980. – 191 с.; Гашева Л.П. Порядок расположения компонентов во фразеологизмах процессуальной семантики в современном русском языке (модель словосочетания): Дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1984. – 180 с.; Гашева Л.П. Позиция процессуальных фразеологизмов в предложении (семантико-грамматический и коммуникативный аспекты): Дисс. ... д-ра филол. наук. – Челябинск, 1999. – 609 с.; Иванова Е.Е. Глагольный компонент фразеологизма как системообразующий фактор // Системные связи и отношения фразеологизмов. – Свердловск, 1989. – С. 60–68; Наролина О.В. Грамматическая семантика глагольно-именных фразеосочетаний русского языка // Системность языковых средств и их функционирования / Межвуз.сб. тр. – Куйбышев: КГУ, 1989. – С. 21 -26; Макавич Г.В. Семантические и синтаксические свойства и функции инфинитивной формы процессуальных фразеологизмов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1992. – 262 с.; Казачук И.Г. Составляющие и природа управления процессуальных объектных фразеологизмов модели словосочетания: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1993. – 233 с.; Лебединская В. А. Взаимодействие семантических и грамматических свойств процессуальных фразеологизмов: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Курган, 1996. – 312 с.; Свиридова А.В. Семантические и грамматические свойства процессуальных фразеологизмов с компонентом НЕ: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1996. – 268 с.; Усачева Н.Б. Структурные и семантические свойства фразеологизмов с компонентом «иметь»: Дисс. ... канд. филол. наук. – Курган, 1998. – 212 с.; Корнилова Л.Н. Структурно-семантические и морфологические свойства процессуальных фразеологизмов со значением становления: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2000. – 221 с.; Кабыш В.И. Структурные и семантические свойства фразеологизмов с компонентами брать/ взять: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2003. – 216 с.

<sup>9</sup> Чепасова А.М. Семантико-грамматические классы русских фразеологизмов: Учеб. пособие – Челябинск: Челяб. пед. ин-т, 1974. – 100 с.; Гашева Л.П. Порядок расположения компонентов во фразеологизмах процессуальной семантики в современном русском языке (модель словосочетания): Дис. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1984.

Qo'rg'on frazeologiya ilmiy maktabining malakali olimlari: V.A.Lebedinskaya, N.B.Usacheva, B.V.Turkina, Yu.S.Jakina, A.A.Sokolova<sup>10</sup> semantik tuzilmani o'rganish va protsessual frazeologizmlarning semantik subkategoriyalarini aniqlashga alohida hissa qo'shdilar.

Yuqorida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'rib chiqish jarayoni shuni ko'rsatadiki, rus rasmiy yozma yodgorliklaridagi protsessual frazeologizmlar maxsus lingvistik tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Bizning tushunchamizda, protsessual frazeologizmlar (PF) – bu “jarayon sifatida har qanday harakat, holat, xossalar, o'zgarish” ma'nosini ifodalovchi birliklardir<sup>11</sup>. Ushbu birliklar protsessual semantikaga ega bo'lib, insonning faoliyati, holati va tabiatda, jamiyatda, bilimda sodir bo'ladigan narsalarning doimiy yoki o'ziga xos, g'ayrioddiy xususiyatlariga munosabatini bildiradi.

Biz ko'rib chiqayotgan PFning eng muhim xususiyatlari:

a) odatda ko'chma, metaforik ma'no bilan tavsiflangan semantik tarkibning birligi, masalan: «держи к нему | несуменную веру» (*держать несуменную веру*) – (‘birovga unutilmas, o'chmas, butunlay ishonmoq’); «не пѣсти меж двор пустить» – (‘kimnidir vayron qilish, qashshoqlikka solib qo'ymoq’); «приложил рѣку» (*приложитъ (прикладывать) руку*) – (‘1) ishtirok etish, biror narsaga aloqador bo'lish; 2) g'ayrat ko'rsatish; kimgadir yoki biror narsaga jiddiy munosabatda bo'lish; 3) imzo qo'yish; b) XVII–XVIII asrlar rasmiy hujjat yodgorliklari matnlarida tahlil qilinayotgan PFlarning umumlashtirilgan yaxlit ma'nosi ma'lum darajada unga kiritilgan so'zlarning tarkibiy qismidan kelib chiqadi (*смирять монастырским смирением; сменить / положить гнев на милость; снять с себя крест*); v) so'z birikmasining ma'lum bir ma'noda va aniq maqsadda takrorlanishi (*дать на поруки; взять к делу; Бог по сердцу положит*)).

Ushbu tadqiqotning vazifalaridan biri XVII–XVIII asrlarga oid rus rasmiy yozma yodgorliklarida foydalaniladigan PFning kommunikativ-pragmatik toifasini illokutiv hujjat turlari ko'rinishidagi propozitsion mazmunini tahlil qilishdir. Shuning uchun keyinchalik pragmatikaning yadrosiga aylangan klassik nutq aktlari nazariyasining (NAN) paydo bo'lish tarixiga murojaat qilish kerak.

NAN paydo bo'lishi munosabati bilan jahon tilshunosligida, xususan, rus tilida tilshunoslikning yangi sohasi – lingvopragmatika shakllandi. Rossiya Fanlar

---

– 180 с.; Свиридова А.В. Семантические и грамматические свойства процессуальных фразеологизмов с компонентом НЕ: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1996. – 268 с.; Казачук И.Г. Составляющие и природа управления процессуальных объектных фразеологизмов модели словосочетания: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 1993. – 233 с.; Корнилова Л.Н. Структурно-семантические и морфологические свойства процессуальных фразеологизмов со значением становления: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2000. – 221 с.;

<sup>10</sup> Лебединская В.А. Субкатегории процессуальных фразеологизмов // Вестник Челябинского гос. пед. ун-та. Сер. 3. Филология. – Челябинск, 1997. – № 2. – С. 38–49; Усачева Н.Б. Структурные и семантические свойства фразеологизмов с компонентом «иметь»: Дисс. ... канд. филол. наук. – Курган, 1998. – 212 с.; Туркина Б.В. Процессуальные фразеологизмы субкатегории состояния в современном русском языке. – Дисс. ... канд. филол. наук. – Курган, 2002. – 220 с.; Жакина Ю.С. Процессуальные фразеологизмы субкатегории деятельности: Дисс. ... канд. фил. Наук. – Курган, 2003. – 276 с.; Соколова А.А. Процессуальные фразеологизмы субкатегории отношения в современном русском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Курган, 2004. – 291 с.

<sup>11</sup> Челябинская фразеологическая школа / Научно-исторический очерк. – Челябинск: ЧГПУ, 2002. – 304 с. – С. 18.

akademiyasining rus tili lug'atiga ko'ra, «pragmatika – bu odamlarning unga bo'lgan munosabati natijasida paydo bo'ladigan belgilar tizimining xususiyatlarini o'rganadigan semiotika bo'limi»<sup>12</sup>. Belorussiyalik tilshunos B.Yu.Normanning fikricha, «pragmatika – bu haqiqiy muloqot jarayonlarida tilga xos alomatlarining harakatini o'rganadigan bilimlar sohasi»<sup>13</sup>.

“Pragmatika” atamasining so'nggi ta'rifi eng maqbuli bo'lib, u “murojaatchi -hukmdor” pragmatik kommunikatsiyasidagi eng muhim komponentlarni ko'rib chiqish imkonini beradi. Unda nutq holati taksonomik jihatdan tashkillashgan holda o'tadi, ya'ni yuboruvchi tomonidan aniq maqsadda amalga oshiriladi. Murojaatchi – yuboruvchi va tinglovchi – oluvchi dialogini olib borish suratining o'zi asoslantirilgan mantiqni ifodalaydi<sup>14</sup>. Shunga muvofiq tarzda, o'zak komponentlari sifatida fe'l ishtirok etadigan protsessual frazeologik birliklardan foydalanish ushbu kommunikativ uslubning muhim xususiyati hisoblanadi. Iboralarning kommunikativ -pragmatik mazmuni tahliliga ko'ra, ular, birinchidan, suhbatdoshlar o'rtasida ma'lum ijtimoiy munosabatlar mavjudligini belgilaydi; ikkinchidan, o'rganilayotgan davrdagi ma'muriy-huquqiy va ishbilarmonlik sohasida muloqot qilish odatlarini aks ettiradi; uchinchidan, suhbatdosh bilan nutq aloqasini o'rnatish maqsadida qo'llaniladigan o'ziga xos takroriy nutq iboralari sifatida xizmat qiladi.

**“XVII–XVIII asrlarga xos rus ishbilarmonlik yodgorliklarida protsessual frazeologizmlarning tuzilmaviy-semantik tashkil etilishi”** nomli ikkinchi bobda o'rganilayotgan protsessual frazeologizmlar ma'nosi tuzilishida mavjud denotativ-signifikativ va konnotativ makrokomponentlar ko'rib chiqilib, maishiy turmush kichik toifasiga mansub va “bo'lish” komponentiga ega bo'lgan protsessual frazeologizmlarning semantik xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi.

A.M.Meleroichning fikriga qo'shilgan holda biz shunday xulosaga kelamizki, tahlil qilinayotgan frazeologik birliklarning frazeologik ma'nosi denotativ-signifikativ va konnotativ makrokomponentlar yordamida uzatiladi<sup>15</sup>. Bunday xulosaga kelishning sababi, birinchidan, tadqiqot materiali – XVII–XVIII asrlarda ishbilarmonlik yozuvlari yodgorliklari, ya'ni matnlarning janr bo'yicha xilma-xilligi va o'ziga xosligidir; ikkinchidan, sof tilga oid vaziyat va kommunikativ-pragmatik vaziyat, shuningdek, u yoki bu frazeologizmdan foydalanish vaqtida til shaxsiyatining xususiyatlaridir.

Tabiiyki, bunda savol yuzaga keladi – frazeologik birlik komponentlarning predmet-mantiqiy mazmuni va tarkibiy elementlari bilan frazeologizmga biriktirilgan iboraviy ma'no o'rtasida qanday aloqa o'rnatiladi? Frazeologik birlikning tuzilmaviy-semantik holatiga qaraganda frazeologik ifodaning denotativ-signifikativ jihatini aniqlash uchun, avvalo, uning ichki shakliga (ISh) e'tibor qaratish zarur.

<sup>12</sup> Словарь русского языка: в 4-х т. / РАН, Ин-т лингвистич. исследований / Под ред. А. П. Евгеньевой. – 4-е изд., стер. – М.: Рус.яз.; Полиграфресурсы, 1999 // <https://kartaslov.ru/значение-слова/прагматика>.

<sup>13</sup> Норман Б.Ю. Лингвистическая прагматика на материале русских и других языков. – Минск: БГУ, 2009. – С. 9.

